



PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF TRENDS AND DIRECTIONS IN FINE ARTS

Khasanov Holboy Khasanovich

Associate Professor

(e-mail: x.khasanov@tersu.uz)

(phone number: +99899 570 57 01).

Annotation

Today's world visual art is developing at a fast pace and in different streams and directions. but it cannot be said that this process is happening in the same way in all provinces. Realism is gaining popularity in one country, impressionism in another, and abstractionism in another. In general, countries such as France, Mexico, the USA, Spain, and Russia are leading the development of visual arts in the late 19th and early 20th centuries.

Keywords: Representatives of fine arts, visual tools, school of abstraction, cold climate places.

TASVIRIY SAN'ATDAGI OQIM VA YO'NALISHLARNING RIVOJLANISH TAMOYILLARI

Xasanov Xolboy Xasanovich

Dotsent (e-mail: x.xasanov@tersu.uz)

(telefon raqam: +99899 570 57 01).

Annatatsiya

Hozirgi zamon jahon tasviriy san'ati tez sur'atlarda va turli oqim xamda yo`nalishlarda rivojlanmoqda. Lekin bu jarayon xamma mamtakatlarda xam bir xilda kechmoqda, deb bo`lmaydi. Bir mamtakatda realizm, boshqasida impressionizm, yana boshqasida abstraksionizm shuxrat qozonmoqda. Umuman esa XIX-asr oxiri va XX-asr xamda XXI-asrning ilk yillarida tasviriy san'ati taraqqiyotida Fransiya, Meksika, AQSH, Ispaniya, Rossiya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqdalar.


Kalit so'zlar: Tasviriy san'ati vakillari, tasviriy vositalar, abstraksionizm maktabi, sovuq iqlimli joylar. XIX-XX-asrlar jaxon ilgor tasviriy san'ati vakillari sifatida fransiyalik Pol Gogen, Ogust Renuar, Anri Matiss ispaniyalik Pablo Pikasso, amerikalik R.Kent, meksikalik D.Sikeyros, D.Rivera, italiyalik R.Guttuzo, rossiyalik I.Shishkin, S. Konenkov, I.Repin, I.Ayvazovskiy, O`zbekistonlik O`.Tansiqboyev, Ch.Axmarovni ko`rsatish mumkin. Bu va boshqa bir qator rassomtar tasviriy san'atning asosiy oqimlardan hisoblangan realizm, romantizm, impressionizm, formalizm kabi oqimlarda ijod qildilar. Bu yo`nalishlarda yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratildi. Ular P.Pikassoning "Shar ustidagi qizcha", "Uch musiqachi" (Ispaniya), Sal'vador Dalining "Urush qiyofasi", R.Kentning "Noyabr oyidagi Shimoliy Grenlandiyaning ko`rinishi", E.Yorxolning "Avtoportret", A.Pozdneevning "Teatr kishilari" (Rossiya), S.Alibekovning "Do`ppili avtoportret" (O`zbekiston), S.Dalining "Madonna Port-



Ligat" (Meksika), P.Gogenning "Kechuv", O.Renuarning "Janna Samara" portreti, A.Matissning "Idish va mevalar", P.Sezanning "Pentuazedagi tegirmon manzarasi" (Fransiya), I.Shishkinning "Bug`doyzor", S.Konenkovning "Poganini" (Rossiya), Van Gogning "Adirdagi o`rim-yig`im", O.Rodenning "Mutafakkir" (Fransiya), I.Ayvazovskiyning "To`qqizinchi val" (Armaniston), R.Guttuzoning "Saxrodagi otishma", "Xudo bizga yor" (Italiya), I.Repinning "Sad'ko" (Rossiya), A.Lentulovning "Zangori vaza va mevalar" (Fransiya), Usta

Mo`minning "Cho`ponning tushi", R.Axmedovning "Tong", "Onalik" (O`zbekiston) asarlaridir. Yuqorida qayd qilinganidek, xozirgi zamon tasviriy san'ati nixoyatda turlituman oqim va yo`nalishlarda rivojlanmoqda. Quyida mazkur oqimlarning eng asosiylari bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Realizm oqimi. Realizm iborasi keng ma'noda xayotni to`g`ri, haqiqatda qanday bo`lsa, shundayligicha o`ziga xos badiiy shakllar yordamida tasvirlashni nazarda tutadi. Mazkur yo`nalish XIX- asr o`rtalarida Fransiyada paydo bo`ldi. Realizm fotografiya kabi borliqni to`g`ridan-to`g`ri ko`chirish emas, balki uni ifodalashga ijodiy yondashib, hayotdagi eng xarakterli, qiziqarli ko`rinishlarni tanlab olish, shu asosda asarlar yaratishdan iboratdir. Tasviriy san'atda realizmning paydo bo`lishi va rivojlanishida rassomlardan Dom'e, Kurbe, Repin, Guttuzolar katta rol o`ynadilar. Realizm oqimida yaratilgan asarlarning yorqin namunasini Amerikalik rassom R.Kentning "Noyabr oyidagi shimoliy Grenlandiyaning ko`rinishi", Xitoylik rassom Chjao Peychjining "Qiygos gulladi", Rossiyalik haykaltarosh S.Konenkovning "Poganini" kabi suvrat va haykallari misolida ko`rish mumkin. R.Kentning Moskvadagi A.S.Pushkin nomidagi tasviriy san'at muzeyida saqlanayotgan "Noyabr oyidagi Shimoliy Grenlandiyaning ko`rinishi" nomli suvratida Amerikaning Shimoliy Sharqdagi Shimoliy muz okeani va Atlantika okeani soxilidagi orol ko`rinishi tasvirlangan (**1-rasm**). Uning mazmuni bu sovuq iqlimli joylarni o`rganish uchun borgan tadqiqotchilarning yashash sharoitlari va okeanning ko`rinishini aks etgirishdan iboratdir.





Futurizm atamasi - lotincha “fugura” soʻzidan olingan boʻlib, kelajak maʼnosini bildiradi. Bu oqim vakillari “kelajak sanʼati” ni yaratish maqsadida anʼanaviy madaniyatni, uning barcha axloqiy va badiiy mohiyatini inkor etadilar. Ular asosan sanoatlashgan yirik shaxardagi zamonaviy fan va texnika yutuqlarini, ularning harakati, kuch-quvvatini ulugʻlaydilar.

Primitivizm atamasi — “primitiv”, yaʼni sodda maʼnosini bildiradi. U XIX asr oxiri XX-asr boshlarida paydo boʻlgan. Mazkur oqim vakillarining maktadi tasviriy vositalarni ataylab tenglashtirib, ibtidoiy, oʻrta asrlar. xalq, sanʼati, bolalar ijodiga yaqinlashtirib asar yaratishdir. Primitivizmning paydo boʻlishi burjua sanʼatida ijodkorning hayotni real aks ettirishdan shuningdek, Yevropada XVI-asrdan boshlab shakllangan turli badiiy uslublardan vos kechish yoʻlidagi xarakteristikalar bilan bogʻliqdir Kasbiy maxsus maʼlumot olmagan, oson tasviriy vositalardan foydalanib, suvratlar yaratgan rassomlar qatoriga fransiyalik A Russo, gruziyalik N.Pirosmanashvish kabilarni kiritish mumkin. P.Pikassoning bu oqimda yaratitgan “Raqqosa” suvrati ham bor. Xususan, uning 1907-1908 yillarda yaratgan “Raqqosa”, N.Pirosmanashvitining “Kichik baliqcha”, “Jirafa” nomli asarlari primitivizmning butun mohiyatini namoyon etuvchi asarlardir

Modernizm - fransuzcha “modern” soʻzidan olingan boʻlib, eng zamonaviy degan maʼnoni anglatadi. U bir qator madaniyat va sanʼat yoʻnalishi oqimlarining umumiy nomi boʻlib, uning shakllanishi XIX -XX asrlarga toʻgʻri keladi. Bu oqim vakillari mumtoz sanʼatning vos kechadilar. Modernizmning dastlabki shakllari kubizm, syurrealizm, abstraksionizm xisoblanadi. Bu yoʻnalish mutaxassislari oʻtmish merosdan butunlay vos kechishni targʻib qiladilar va mavjud badiiy did va estetik tushunchalar asosida shakllangan meʼyorlarga qarama-qarshi boʻlgan ushbu tamoyllarni yaratish gʻoyasini ilgari suradilar. Keyinchalik, XX-asr boshlarida modernistic oqimlarning rivojlanishi asosida abstraksionizm oqimi paydo boʻldi. Uni peredmetsiz sanʼat ham deyishadi. 1940-yidda AKDSda “Tinch okean abstraksionizm maktabi”ning paydo boʻlishi mazkur yoʻnalishning bonsha oqimlar orasida toʻgʻri mavqiga chshib olishiga imkon berdi.

Foydanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. R. Hasanov, Tasviriy sanʼat asoslari Oʻquv qoʻllanma. Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa – ijodiy uyi. Toshkent -2009.
2. N. Abdullayev Jahon sanʼati tarixi, Kasb –hunar kollejlari uchun oʻquv qoʻllanma. Toshkent Davr Pres 2007 96-105 betlar.14
3. Slaydlar uchun Platonova N. N Ensiklopedicheskiy slovar yunoga xudojnika Moskva Pedagogika 1983 .
4. <https://uz.sputniknews.ru/20180530/Khudozhnik-Sergey-Alibekov>
5. <https://www.google.com/search?>
6. <https://koryo-saram.ru/veronika-van-zuhridtdin-islamshikov-hudozhnik-i-pedag>
7. <https://www.google.com/search>



Academica Globe: Inderscience Research

ISSN: 2776-1010

Volume 3, Issue 9, Sep., 2022

8. <https://mpradist.ru/uz/kto-yavlyaetsya-avtorom-kartiny-poslednii-den-pompeiposlednii-den-pompei.html>
9. Mamatqulov, S. N. (2021). TASVIRIY SAN'AT METODIKASI FANIDAN KURS ISHI TAYORLASH METODOLOGIYASI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 1998-2006.